IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: MX31200112

# SHARTNOMA № 87221/610

**"10" iyun 2022 yil** **Farg'ona shahar**

Ushbu shartnoma bir tomondan **"F.A.H.R" xususiy korxonasi** nomidan **rahbari Asatullayev H.F.**vakilligida kelgusida **"Ta'minotchi"** va ikkinchi tomondan **Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi** nomidan **birlashma boshlig'i M.N.Shokirov** vakilligida kelgusida **"Buyurtmachi"** o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar.

## I. Shartnoma predmeti

1.1. "Ta'minotchi" "Buyurtmachi"ga ushbu shartnomaga asosan umumiy qiymati (QQS bilan) **214 000 000** ***(ikki yuz o'n to'rt million)***so'm bo'lgan tibbiy jixoz (kelgusida "Tovar" deb nomlanadi)ni spesifikatsiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnoma asosida yetkazib beradi.

| **№** | **Mahsulot nomi** | **Miqdori** | **O'lchov birligi** | **Narx (so'm)** | **Jami summa QQSbilan** | **Yetkazib berish vaqti** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Skameyka (yog'och metall) | 20 | dona | 1600000 | 32000000 | 30 kun ichida |
| 2 | Skameyka (yog'och metall) | 20 | dona | 1400000 | 28000000 | 30 kun ichida |
| 3 | Skameyka (yog'och metall) | 20 | dona | 600000 | 12000000 | 30 kun ichida |
| 4 | Skameyka (yog'och metall) | 20 | dona | 3000000 | 60000000 | 30 kun ichida |
| 5 | Skameyka (yog'och metall) | 20 | dona | 1600000 | 32000000 | 30 kun ichida |
| 6 | Skameyka (yog'och metall) | 20 | dona | 2500000 | 50000000 | 30 kun ichida |
| | **Shartnomanig jami summasi** | | | | **214000000** | |

1.2. "Buyurtmachi" e`sa o'znavbatidaushbu "Tovar"lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida "Ta'minotchi"ga to'laydi.

## II. To'lov tartibi

2.1. "Buyurtmachi" shartnoma imzolangandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" umumiy qiymatining 30% ni oldindan **64 200 000** so'm miqdorida to'laydi. "Tovar" lar to'lovining qolgan, ya'ni 70 % qism ie`sa "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi.

## III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

### *3.1. "Ta'minotchi" ning huquq va majburiyatlari:*

3.1.1. "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" umumiy narxining 30 foizi "Ta'minotchi"ning hisobraqamiga oldindan to'langandan so'ng "Ta'minotchi" "Buyurtmachi" ni "Tovar" bilan ta'minlaydi.

3.1.2. "Ta'minotchi" "Buyurtmachi"ga "Tovar"ni tegishli hujjatlar asosida belgilangan tartibda hamda belgilanga nstandart sifatdarajasida topshirish majburiyatini oladi.

Кўриб чиқган юрист: TOJIMAMATOV MIRKOMILJON MIRODILJON O'G'LI. Ҳужжат рақами: IU2334213746

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: MX31200112

3.1.3. “Ta’minotchi” “Buyurtmachi” ga qulaylik yaratish maqsadida “Tovar” ni oʻz transport vositalarida “Buyurtmachi”ning manzilgohiga yetkazib beradi. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati “Ta’minotchi”ning zimmasida qoladi.

3.1.4. “Ta’minotchi”ning transport vositasida yetkazilgan “Tovar”ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan “Buyurtmachi” “Ta’minotchi”ning vakili ishtirokida “Tovar” yetkazilgan kunda yoq dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi “Ta’minotchi” tomonidan 3 kun muddat ichida toʻldiriladi. Agarda ushbu harakatlar oʻz vaqtida amalga oshirilmasa e’tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. “Ta’minotchi” Sogʻliqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dorivositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan “Tovar”lar bilan “Buyurtmachi”ni ta’minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz “Buyurtmachi” “Tovar” ni olishga haqli emas.

***3.2.“Buyurtmachi” ning huquq va majburiyatlari:***

3.2.1. “Buyurtmachi” “Ta’minotchi”dan shartnoma tuzilgandan soʻng yetkazib berilishi lozim boʻlgan “Tovar” uchun ularning umumiy qiymatining 30 foizini oldindan toʻlagandan soʻng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, “Tovar” ni ishonchnoma asosida qabulqilib olish huquqiga e`ga.

3.2.2. “Buyurtmachi” “Ta’minotchi” dan Oʻzbekiston Respublikasida farmokologik roʻyxatdan oʻtkazilib, ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va oʻramlari amaldagi farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega boʻlgan “Tovar”larni talab qilish huquqiga ega. “Buyurtmachi” “Xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi toʻgʻrisida”gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq, agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki koʻrsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi boʻyicha standartlar, texnikshartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xoʻjalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabulqilish hamda ularning haqini toʻlashni rad etib, yetkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada boʻlmagan tovarlar (ishlarvaxizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undiri bolishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi toʻlab qoʻyilgan boʻlsa, toʻlangan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

## IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, “Xoʻjalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi toʻgʻrisida”gi Qonuni va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. “Ta’minotchi” tomonidan yetkazib berilgan “Tovar” uchun toʻlanishi lozim boʻlgan toʻlov haqi “Buyurtmachi” tomonidan oʻz vaqtida amalga oshirilmasa, Oʻzbekiston Respublikasining “Xoʻjalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi toʻgʻrisida”gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq toʻlov kechiktirilgan har bir kun uchun toʻlanishi lozim boʻlgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan toʻlov summasining 50 foizidan ortiq boʻlmagan miqdorda “Taminotchi” ga penya toʻlaydi.

4.3. “Ta’minotchi”tomonidan“Buyurtmachi” ga berilgan buyurtmalarni “Buyurtmachi” ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda toʻliq olishi shart. Aks holda “Buyurtmachi”dan Oʻzbekiston Respublikasi “Xoʻjalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi toʻgʻrisida”gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) “Tovar” summasining 5 foizi, tez buziladigan “Tovar”lar boʻyicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi.

4.4. “Ta’minotchi” tomonidan “Buyurtmachi” ga yetkazib berilishi lozim boʻlgan “Tovar”larni yetkazib berishni “Ta’minotchi” asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun “Ta’minotchi” “Buyurtmachi”ga yetkazib berilmagan “Tovar” umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 foizidan ortiq boʻlmagan miqdorda penya toʻlaydi

## V. Fors-major holatlari

5.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma boʻyicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo boʻlgan va ularni oldindan koʻra bilish yoki bartaraf etish

mumkin bo‘lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog‘liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

**VI. Nizolarni hal qilish tartibi**

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog‘liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o‘rtasida muzokara yo‘li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda “Buyurtmachi” joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

**VII. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar**

7.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so’ng, shartnoma bilan bog’liq korrupsiyaviy xarakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

7.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo’shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo’yicha xamkorlikni ta’minlaydilar.

7.4. Xar bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o’zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog’liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo’l qo’yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va’da qilinmaganligini, shuningdek xar qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini kafolatlaydi.

7.5. Shuningdek tomonlar o’rtasida korrupsiya xolatlari sodir etilganda O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 12-noyabrdagi1/4671,01-19/7284,7/01-08-9544-son qaroriga muvofiq vakolatli davlat organlarini darxol xabardor qilishi shart.

7.6. Bir tarafning talabi bo’yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo’yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko’rilmagan yoki ko’rib chiqish natijalari xaqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tomonlama to’xtatib turishga, bekor qilishga xamda zararni to’liq qoplab berishni talab qilishga xaqli

**VIII. Shartnomaning amal qilish muddati**

8.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

8.2. Shartnoma hududiy G‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatga olingan hamda taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabr kunigacha amal qiladi.

**XI. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari**

**«Ta’minotchi»**

**"F.A.H.R" X/K**

Farg‘ona shahar
Muqimboyev ko'chasi, 34-uy
Bank: Ipoteka-bank, Farg'ona filiali
MFO: 00544 INN: 202 815 971
x/r 2020 8000 9039 8864 5001
Tel: +998 55 801 70 00
OKED: 61124

**"F.A.H.R" X/K rahbari:**
**Asatullayev H.F.**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA SHAHAR KO‘P TARMOQLI XUSUSIY FIRMASI «F.A.H.R.» «F.A.H.R.»

**« Buyurtmachi»**

**Farg‘ona shahar tibbiyot birlashmasi**

Farg‘ona shahar Qirlola ko‘chasi 2-uy
Shh/r: 100022860304017073101054008
STIR: 200145074 OKONX:97600
Farg‘ona shahar bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi
H/r:23402000300100001010
Markaziy bank Toshkent shahar HKKM
MFO: 00014 STIR: 2011122929

**Farg‘ona shahar tibbiyot birlashmasi boshlig‘i:**
**M.N.Shokirov**

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: IU2334213746

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

**№** IU2334213746

**1. Loyihaning turi:** Shartnoma № 87221/610-sonli

**2. Loyihaning nomi:** *Farg'ona shahar Tibbiyot birlashmasi bilan "F.A.H.R" xususiy korxonasi o'rtasida tovar yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzish haqida.*

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Farg'ona shahar Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 8-iyun kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 8-iyun kuni "E-huquqshunos" elektron tizimiga yuklangan. Lekin xulosa olish uchun o'z vaqtida yuborilmagan. 2022-yil 10-iyun kuni esa "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga yuborilgan.

**4. Loyiha bo'yicha taklif:** Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

**X U L O S A:**

Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bosh yuriskonsulti** **M.Tojimamatov**

*2022-yil 10-iyun*

Юрист исм фамилияси: TOJIMAMATOV MIRKOMILJON MIRODILJON O'G'LI